



**XALQ DEPUTATLARI SHO'RCHI TUMANI
KENGASHINING QARORI**

Sho'rchi tumani, Mustaqillik ko'chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 йил «14» июль

VI-48-102-8-120-K/22

Шўрчи туман ҳокимлиги

**2022 yilda tuman ichki yo'llarini ta'mirlash dasturining manzilli
ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respubliksi Prezidentining 2022 yil 22 yanvardagi “2022-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-98-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagи “2022-2026 yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-172-son hamda 2022 yil 18 maydagи “Sement-beton qoplamali avtomobil yo'llari tarmog‘ini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-249-son qarorlariga muvofiq tuman hududida ichki yo'llarni ta'mirlash ishlarini amalga oshirish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 maydagи PQ-249-son qarorining 4.2-bandiga muvofiq, manzilli ro'yxatlar tuman hokimliklari tomonidan sektorlar rahbarlarining joylarda jamoatchilik fikri va talabini inobatga olgan holda bildirgan takliflari asosida shakllantiriladi hamda tuman Kengashlari tomonidan tasdiqlanadi deb ko'rsatilgan.

Tumanda mazkur topshiriqning ijrosini ta'minlash maqsadida, ta'mirtalab holatga kelib qolgan ichki yo'llarni tuman sektorlar rahbarlari hamda jamoatchilik fikri va talabini inobatga olgan holda, ular tomonidan bildirgan takliflari asosida ichki yo'llarni manzilli ro'yxati shakllantirilgan.

Yuqorida qayd etilgan davlat dasturlari ijrosi hamda O'zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respubliksi Prezidentining 2022 yil 22 yanvardagi “2022-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-98-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagи “2022-2026 yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-172-son hamda 2022 yil 18 maydagи “Sement-beton qoplamlali avtomobil yo‘llari tarmog‘ini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-249-son qarorlari asos va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, communal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari A.Chulliyevning kun tartibidagi masala yuzasidan bergan axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hududida 2022 yilda ichki yo‘llarni ta’mirlash dasturining manzilli ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari A.Chulliyevga, viloyat Avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi, viloyat hokimligining Yagona buyurtmachi injiniring kompaniyasi, “Mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati” DUK Surxondaryo filiali hamda aloqador tashkilotlar rahbarlari bilan birgalikda:

- 2022 yilda ichki yo‘llarni ta’mirlash dasturiga kiritilgan ichki yo‘llarni amaldagi qonun talablari asosida belgilangan muddatda sifatli foydalanishga topshirilishini ta’minasin;

- amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi sessiyalarida hisobot berib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Tuman hokimining axborot xizmati (N.Shoyeva) va “Jarayon” gazetasi (B.Elmurodova)ga tasdiqlangan manzilli ro‘yxat asosida 2022 yil dasturi doirasida ichki yo‘llarni ta’mirlash obyektlari ustidan deputatlik va jamoatchilik nazorati natijalari yuzasidan o‘tkaziladigan sessiyalarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, communal xo‘jalik va aholiga

xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Yuldashev)
hamda tuman hokimining o‘ribbosari A.Chulliyev zimmalariga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Xalq deputatlari tuman Kengashi
raisi**



Xudoyberganov B.X